

**ABDULLA ORIPOV TABIAT POETIKASIDA LIRIK  
QAHRAMON MASALASI**

*Azamat ZARIPOV*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi,  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.*

***Annotatsiya:** His-hayajonga to'liq she'rlari orqali shodligu qayg'uni inson, Vatan, tabiat tasviri orqali berishga intilgan, o'z qalbini tabiat qiyofasiga mengzagan. Uning qalbi tabiat uchun keng makonga aylangan. Xususan, Vatan mavzusining betakror talqini, tabiat lirikasidagi uyg'unlik Abdulla Oripov ijodiy kamolotida muayyan o'rin tutishi ochib berilgan.*

***Tayanch so'zlar:** mumtoz she'riyat, Vatan obrazi, badiiy sintez, peyzaj badiiyati, poetik takomil, ijodiy an'ana, poetik ifoda, ilmiy tahlil, ijodiy metod, tabiat timsollari.*

Keyingi yillar o'zbek lirikasida tabiat va inson ruhiyati masalasini o'rganar ekanmiz, tabiat-jamiyat-inson psixologiyasining bog'langan shakllari, ko'rinishlari va vositalarini tadqiq etishga harakat qilayapmiz. Har bir ijodkor o'z badiiy niyati, nuqtai-nazari, ongi, dunyoqarashi taqozosiga ko'ra tabiat xossalari va hodisalariga murojaat etadi. Ana shu estetik maqsadning turfaligi ijodkor avlodlar badiiy talqinidagi xilma-xilliklarni, farqli jihatlarni yuzaga keltiradi. Keyingi yillar o'zbek peyzaj lirikasida tabiat ranglari, ohanglari, manzaralari zimmasiga yuklanayotgan ma'nolar salmog'i o'zining ijtimoiy-falsafiy mazmuni bilan alohida bir sahifani tashkil etadi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Tabiat xossalari va hodisalari orqali insonni va jamiyatni badiiy-estetik tadqiq etish she'riyatimiz taraqqiyotida yetakchi tendensiyalaridan biriga aylandi. Peyzaj lirikasi, bu – tabiat va inson munosabatlarining faqat zohiriy ko'rinishlari, ya'ni kechinmalar shaklidagi ifodasi emas, aslo. Tabiat tasviri asosida inson ruhiyati manzaralarini anglash va anglatish, jamiyat psixologiyasini tushunish hamda tushuntirish bosh masala hisoblanadi. Ma'naviy-ahloqiy, ijtimoiy-falsafiy, ma'rifiy mazmun va xususiyatlariga ko'ra peyzaj lirikasi avlodlar ongiga, uning dunyoqarashiga, badiiy-estetik tafakkuriga ta'sir ko'rsatadi.

Rus munaqqidi V.G.Belinskiy shunday yozadi: “Poeziyadan maqsad nima? Tabiat estetik tuyg‘u ato qilgan kishilar uchun bu masala juda muhim va ayni paytda juda mushkul tuyuladi.

Bashariyat badiiy merosi, ilhom va kalom xazinasining so‘lim hissasini lirika tashkil etadi. Uch adabiy jinsning bittasi bo‘lmish lirikaning bir qadar baland pardalarida tavsiflar ekanmiz, bu uni atay maxsus va mumtoz bir o‘ringa qo‘yishni ko‘zlagan bir urinish emas.<sup>1</sup>

Lirika, bu – uning tabiatidan, ichki mohiyatidan, chunonchi, hamma joyda hoziru nozir, tez va shiddatkorlik bilan faoliyat ko‘rsata bilishidadir. Nemis shoiri Iogannes Bexer shunday deb yozgan edi: “She’r hamma vaqt ham shoir uni boshlagan joyda tugallanmaydi. Shoir bizni ko‘pincha she’rning tug‘ilishi, shakllanishi dardini birgalikda chekishga majbur qiladi. Shoirning qanday jahd-javlون urishini his qilib turamiz, ammo hali she’rning o‘zidan darak bo‘lmaydi. Gohi she’rlar muqaddimadan nari o‘tmaydi. Faqat keyinroq yozilgan boshqa bir she’rdagina yaxlit she’r qiyofasini olish mumkin. Shunday shoirlar bo‘ladiki, ularning ishi nuqul jahd-javlون urish bo‘ladi, undan nariga o‘tishmaydi, ishini oxiriga boshqalar yetkazishadi.

Tabiat badiiy adabiyotga estetik qimmat beruvchi buyuk kuch sifatida ijodkor dunyoqarashining shakllanishi va ijodiy kamolotida muhim rol o‘ynab keladi. Ijodkorning tabiatga munosabati, asosan, quyidagi ikki bosqichda kechadi:

- a) tabiat hodisalarini estetik idrok etish;
- b) peyzajning badiiy tasviri.

Odam tabiat hodisalarini kuzatadi, o‘rganadi, tashqi olamdan olgan taassurotlari bilan o‘z ma’naviy dunyosini boyitib boradi. Mohiyatiga ko‘ra tabiat farzandi bo‘lgan insonning ilk poetik qarashlarida borliq jonli mavjudotlar olami sifatida tasvirlangan. Chunki bir zamonlar odamzod tabiatdan ajralmagan holda, uning bir bo‘lagi sifatida yashagan, atrofdagi barcha hodisalar-u narsalarni ilohiylashtirib qabul qilgan. Tabiatni estetik idrok etishning ilk namunalari tog‘ qoyalariga chizilgan surat va chizgilarida, badiiy adabiyotda esa xalq qo‘shiqlarida namoyon bo‘lgan. Tabiatni poetik tadqiq etishning dastlabki namunasi sifatida inson atrofini o‘rab olgan olamni ilohiy, mifologik idrok etish bosqichi yuzaga kelgan. Bu tasvir san’atining ilk namunalari tog‘ qoyalariga chizilgan surat va chizgilarida, badiiy adabiyotda esa xalq qo‘shiqlarida kuzatish mumkin.

Abdulla Oripov she’riyati xuddi shunday ko‘z ochganini turkiygo‘y adabiyotlarning

---

<sup>1</sup> Jamol Kamol, *Lirik she’riyat*, “Fan” nashriyoti, 1986 y., 3-bet  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

faxri, ulug' qirg'iz adibi Chingiz Aytmatovning unga bergan bahosi ham tasdiqlaydi: "...katta shoir hamisha o'z vaqtida maydonga keladi, u – hamisha tarixiy. Zotan, katta shoir o'z xalqining ovozi, uning orzu-umidlari va inson qalbi iztiroblarining ifodasidir. Biroq eng asosiysi, u-o'z davrining hakami va kuychisi, u – jarchi va faylasuf, u so'z sehgari va uzlatga chekingan mutafakkir-darvish."<sup>2</sup>

Bu katta shoir qalb ohangi adabiyotshunosning she'r haqidagi hassos kuzatishlari, yurakdan his qilganlari endi shu jarayonning boshida kechirgan, adabiy tajribaga ega bo'lgan shoir Abdulla Oripovnikiga quloq tutaylik: "Nimalarnidir yozgim kelardi, qanday bo'lmasin hislarimni qog'ozga to'kib solmoqchi bo'lardim. Tabiiyki, men she'r yoza boshlagan edim..."

Umuman, she'riyat kishi qalbiga eng avvalo ruhiy tashnalik, cheksiz ehtiyoj, ajib bir sehr tariqasida kirib keladi, shekilli. Shu uchun men she'riyatni ehtiyoj farzandi deb atayman..."<sup>3</sup>

Tabiat xossalari va hodisalari orqali insonni va jamiyatni badiiy-estetik tadqiq etish she'riyatimiz taraqqiyotida yetakchi tendensiyalaridan biriga aylandi. Peyzaj lirikasi, bu – tabiat va inson munosabatlarining faqat zohiriy ko'rinishlari, ya'ni kechinmalar shaklidagi ifodasi emas, aslo. Tabiat tasviri asosida inson ruhiyati manzaralarini anglash va anglatish, jamiyat psixologiyasini tushunish hamda tushuntirish bosh masala hisoblanadi. Ma'naviy-ahloqiy, ijtimoiy-falsafiy, ma'rifiy mazmun va xususiyatlariga ko'ra peyzaj lirikasi avlodlar ongiga, uning dunyoqarashiga, badiiy-estetik tafakkuriga ta'sir ko'rsatadi.

Aslida peyzaj lirikasi tavsifiy lirikaning bir turi. Lirik subyektning his-tuyg'u va kechinmalari tabiat tasviri orqali ta'rif etiladi. Abdulla Oripov she'riyatida peyzaj o'ziga xos tasvirlanadi. "Adabiyotshunolik lug'ati"da yozilishicha: "...u tematik jihatdan falsafiy ("Kuz xayollari"), ijtimoiy-siyosiy (A.Oripov "Bahor kunlarida kuzning havosi"), intim (A.Oripov "Sen bahorni sog'inmadingmi?") va boshqa yo'nalishlarda bo'lishi mumkin".

Abdulla Oripov ijodida tabiat sofligini saqlash, ekologik vaziyatning badiiy-falsafiy talqini alohida o'rin tutadi. Demak, peyzaj lirikasining tasnifiga to'rtinchi tematik mavzu sifatida ekologik inqirozning poetik ifodasini kiritish mumkin. Misol uchun, shoirning "Orol uchun", "Qo'riqxon", "Tabiat" kabi she'rlarida ayni muammo ta'sirli aks etgani kuzatiladi.

---

<sup>2</sup> Oripov A., Zamondoshlar xotirasida. T.2021. G'ofur G'ulom nomidagi NMIU, 11-bet

<sup>3</sup> Oripov A. Ehtiyoj farzandi. T.1988. Yosh gvardiya nashriyoti, 18-19-betlar.

O'tgan asrning 80-yillarida Abdulla Oripov tabiat va hayot haqidagi an'anaviy ko'nikmalarni tubdan yangilab, biz o'rganib qolgan, oddiy haqiqat deb bilgan tushunchalarni poetik mantiq kuchi bilan inkor etib, tamomila yangicha falsafiy-estetik qarashlarni o'rtaga tashladi. Shoirning lirik qahramoni tabiatning egasi emas, balki uning bir zarrasi sifatida tasavvur qiladi o'zini. U zaminning dardiga davo izlaydi, jamiki insonlarni hamdamlikka, tabiatga orifona munosabatda bo'lishga chaqiradi. Ekologik muammolar shoir she'riyatining alohida yo'nalishiga aylandi. Ona sayyoramiz taqdiri uchun qayg'urish, o'zini tabiat bilan bir deb bilish, tabarruk zaminni sevishga da'vat Abdulla Oripov lirikasidagi ham fojiali, ham umidbaxsh tamoyilga aylanadi.

Abdulla Oripov she'riyatini yurtimiz tabiatining milliy poetik qomusi yoki badiiy tabiatnomasi deyish mumkin.

Abdulla Oripov his-hayajonga to'liq she'rlari orqali shodligu qayg'uni tabiat tasviri orqali berishga intilgan, o'z qalbini tabiat qiyofasiga mengzagan. Uning qalbi tabiat uchun keng makonga aylangan. Shu bois shodlikdan yaralgan ko'ngil dalasiga bahor o'z quvonchlari bilan tashrif buyuradi. Shoir nafaqat qalbini tabiat quchog'iga aylantiradi, balki tabiatning turfa jilolarini butun go'zalligi bilan berishga intiladi. Ushbu fikrimizga shoirning "Bahor shamoli" she'ri yaqqol misol bo'la oladi:

*Bahor kelayotir,*

*Toza, musaffo.*

*Moviy kengliklarda o'ynaydi shamol.*

*Daralar qo'ynida zangor bir havo,*

*Tumanli shahr ichra yotmoqlik malol.*

Biz tabiat poetikasida lirik qahramon masalasiga to'xtalar ekanmiz, uning asosiy tasvir obyekti bo'lgan atrof-muhit va tabiatning subyektda qay darajada namoyon bo'lishi va qanday prinsiplar asosida ifodalanishiga e'tiborni qaratamiz. Ijodkorning tabiatga murojaati jarayonda borliqni badiiy idrok etish va uni badiiy tadqiq etish holati ko'zga tashlanadi. Insoniyat tamaddunidan beri u o'zini tabiatning bir bo'lagi deb bilgan, unga sig'ingan (mifologik qarashlar – quyosh xudosi, oy ma'budi, dengiz xudosi va h.k.) bo'lsa, XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, inson o'zini uning uzviy bir qismi, deb emas, balki uning egasi sifatida ham his qila boshlaganini, bu esa inson va tabiat o'rtasidagi keskinlashuvni, ekologik muvozanatning buzlishiga olib kelganligini ko'rsatadi. 80-yillarga kelib peyzaj she'riyatda bu masalaga munosabat bildirish kuchaydi. Bu holat

davrning fan va texnika taraqqiyoti bilan ham bog'liqdir. She'riyat ushbu davrga kelib mazkur xususiyatlarga ko'ra publitsistik ohang kasb eta boshlaganini ta'kidlash zarur. Ya'ni jamiyat hayotining muhim muammolari xususida bong ura boshladi. Agar shoir tabiatni emotsional (hissiy) tarzda anglasa va o'sha anglamoqni poetik idrok bilan tasvirlay olsagina o'z maqsadiga erisha oladi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Jabborov Nurboy. Zamon, mezon, she'riyat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2015.
2. Jo'raqulov Uzoq. Biografik talqin: tarixi, tabiati, metodologiyasi. //O'zMU xabarlar jurnali, 2006.
3. Komilov Najmiddin. Tafakkur karvonlari. – Toshkent: Sharq, 2011.
4. Komilov N. Tafakkur karvonlari. – Toshkent: Sharq, 2011.
5. Oripov Abdulla. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. Birinchi jild. T.: Adabiyot va san'at, 2000.
6. Oripov Abdulla. Tanlangan asarlar. Sakkiz jildlik. 7-jild. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013.
7. Oripov Abdulla. Tanlangan asarlar. 8-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2016.
8. Oripov Abdulla. Ehtiyoj farzandi. T.1988. Yosh gvardiya nashriyoti
9. Saidov Akmal, Abdurahmonov Qalandar, G'ulom Mirzo. O'zbekiston – dilbar vatanim. – Toshkent: Akademya, 2021.
10. Ekkerman P.L. Razgovori s Gyote v posledniye godi jizni, M.- L. "Akademiya", 1934, str 318
11. Erkayev Abdurahim. Abdulla Oripov dahosi. –Toshkent: Oltin nashr, 2021.
12. Bexer I. Lyubov moya, poeziya. Moskva, 1965 g.
13. Jamol Kamol, Lirik she'riyat, "Fan" nashriyoti, 1986 y.
14. "Abdulla Oripov zamondoshlar xotirasida". – Toshkent: "Adabiyot" nashriyotida chop etilgan. Mas'ul muharrir Farog'at Xudoyqulova, to'plovchilar – Hanifa Mustaf qizi, Ruxsora Oripova.